

# Navoiy viloyati statistika boshqarmasi



## 2018 yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga investisiyalar

2018 yil yanvar-sentyabrdan viloyatda asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar hajmi 10059,1 mlrd.so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 184,6 % ni tashkil etdi.



### Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalarining taqsimlanishi

	mlrd.so'm	O'sish surati, %	Yakunga nisbatan foiz
--	-----------	------------------	-----------------------


Asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar	10059,1	184,6	100,0
--	---------	-------	-------

*Shu jumladan*

Markazlashgan investisiyalar:	5545,0	240,3	55,1
Byudjet mablag'lari	79,1	27,4	0,8
Davlat maqsadli fond mablag'lari	179,2	154,9	1,8

	<i>mlrd.so'm</i>	<i>O'sish surati, %</i>	<i>Yakunga nisbatan foiz</i>
Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi fondi mablag'lari	4,0	82,6	0,04
Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'lari	1744,3	275,7	17,3
Hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	3538,4	279,5	35,2
<b>Markazlashmagan investisiyalar</b>	<b>4514,1</b>	<b>144,3</b>	<b>44,9</b>
Korxonalarning o'z mablag'lari	3169,0	170,2	31,5
Aholi mablag'lari	660,9	124,8	6,6
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va kreditlar (boshqa xorijiy investisiya va kreditlar qo'shilgan holda)	123,7	114,3	1,2
Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	560,5	90,2	5,6






### **2018 yilning yanvar-dekabrda shahar (tuman)lar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar hajmi quyidagicha ifodalangan**

<i>Shahar va tumanlar nomi</i>	<i>Investisiyalar hajmi mlrd.so'm</i>	<i>O'sish surati, foizda</i>	<i>Ulushi %</i>
<b>Viloyat jami</b>	<b>10059,1</b>	<b>184,6</b>	<b>100</b>
Navoiy sh.	4306,3	162,1	42,8
Zarafshon sh.	2280,3	276,4	22,7
<b>Tumanlar</b>			
Karmana	1613,8	218,6	16,0
Konimex	88,3	124,6	0,9
Qiziltepa	320,3	121,0	3,2
Navbaxor	165,5	119,5	1,6
Nurota	151,9	148,6	1,5
Tomdi	54,5	109,8	0,5
Uchquduq	845,8	197,8	8,4
Xatirchi	232,4	110,9	2,3
Bo'linmaydigan hajm	-	-	-

## **Hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar o'sish surati, foizda**



Joriy yilda ayrim hududlardagi yirik korxona va tashkilotlar tomonidan kiritilgan investisiyalar hajmining keskin oshib ketishi viloyatdagi investision faollik prognozlarini yuqori suratlarini qayd etmoqda.

Xususan Navoiy viloyatining eng yirik investision loyihalari - "Navoiy metallurgiya kombinasi" DK tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldag'i PP-3507 sonli qarori hamda korxonaning manzilli dasturlariga asosan jami 31 ta loyihalar bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Xuddi shunday "Navoiazot" AK negizida - "Ammiak va karbamid ishlab chiqarish" zavodi qurilishi, "Polivinilxlorid (PVX), kausticheski soda va methanol kabi mahsulotlar ishlab chiqarish" zavodlari qurilishi obektlarida loyihalarning yillik moliyaviy o'zlashtirish grafigi tasdiqlanganligi va har yili bo'linishi shu sababli investisiyalarni yillik o'zlashtirishga tasir qiladi.

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investisiyalar umumiy hajmining 8836,1 mlrd.so'm yoki 87,8 foizi ishlab chiqarish tarmoqlariga, 1223,0 mlrd. so'm yoki 12,2 foizi noishlab chiqarish tarmoqlariga yo'naltirilgan.


## **2018 yil yanvar-dekabrdan asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalarning texnologik tarkibi**

	<i>Jami</i>	<i>Davlat</i>	<i>Nodavlat</i>
<b>Jami, mlrd.so'm</b>	<b>10059,1</b>	<b>3718,1</b>	<b>6341,0</b>
<i>Shu jumladan: umumiyoq hajmga nisbatan foiz ko'rinishida</i>			
Qurilish-montaj ishlari	37,2	32,7	39,8
Mashina, uskunalar, transport vositalari ishlap chiqarish va xo'jalik jihozlari	34,2	62,4	17,6
Boshqa harajatlar	28,6	4,9	42,6

Asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalarning texnologik tarkibining tuzilishi 2017 yil yanvar-dekabrga nisbatan qurilish-montaj ishlarning ulushi 37,2 foizli punktga kamaygan, mashina, uskunalar, transport vositalari, ishlap chiqarish va xo'jalik jihozlar qiymati ulushi 34,2 foizli punktga ko`paygan va boshqa xarajatlarning ulushi 28,6 foizli punktga ko`paygan.

### **Asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar va kreditlarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha**

*(umumiyoq hajmga nisbatan foiz hisobida)*  
*2018 yil yanvar-dekabr*





## **2018 yil yanvar-dekabrda asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investisiya va kreditlar.**

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga 3662,1 mlrd.so'mlik yoki 447,1 mln.dollar xorijiy investisiya va kreditlar o'zlashtirildi (investisiyalar umumiyligi hajmining 36,4 foizi) 2017 yilning mos davriga nisbatan 266,5 foizni tashkil qildi.

